

TURKISTON JADIDLARINING SIYOSIY QARASHLARI

	Fozilov Mirashraf Azamatovich <i>Buxoro Davlat Universiteti, Tarix va yuridik fakulteti, Siyosatshunoslik yo'nalishi</i> <i>3-bosqich talabasi</i>
--	---

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakatining siyosiy qarashlari tarixiy va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadidlarning ma'rifatparvarlik faoliyati, milliy muxtoriyat va mustaqillik haqidagi g'oyalari, shuningdek, huquqiy davlat va konstitutsion boshqaruv masalalariga bo'lgan munosabati yoritiladi. Maqolada jadidlarning ta'lim, matbuot va madaniyat orqali xalqning siyosiy ongini shakllantirishdagi o'rni ochib beriladi hamda ularning Turkiston Muxtoriyati faoliyatidagi ishtiroki faktlar asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari jadidlar siyosiy merosining bugungi davrdagi ahamiyatini aniqlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: jadidchilik, siyosiy qarashlar, muxtoriyat, mustaqillik, huquqiy davlat, ma'rifat.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududi murakkab siyosiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar ta'sirida rivojlandi. Rossiya imperiyasi tomonidan olib borilgan mustamlakachilik siyosati mahalliy xalqning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy huquqlarini cheklab, jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qildi. Ushbu sharoitda milliy ongning uyg'onishi, zamonaviy bilimlarga intilish va ijtimoiy islohotlarga ehtiyoj kuchaydi. Ana shunday murakkab tarixiy vaziyatda jadidchilik harakati shakllanib, u Turkiston jamiyatining ma'naviy va siyosiy hayotida muhim o'rin egalladi. Jadidlar dastlab ta'lim va ma'rifat sohasida islohotlar olib borishni maqsad qilgan bo'lsalar-da, keyinchalik ularning faoliyati siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Ular jamiyatni yangilash, xalqning huquqiy ongini oshirish hamda milliy manfaatlarni himoya qilish masalalarini asosiy vazifa sifatida ilgari surdilar. Jadid ziyolilari mustamlakachilik sharoitida milliy taraqqiyotga erishishning asosiy yo'li sifatida siyosiy islohotlar, konstitutsiyaviy boshqaruv va muxtoriyat g'oyalarini ilgari surdilar. Ularning qarashlari Sharq va G'arb tajribalariga tayanib, zamonaviy demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashgan edi. Shu jihatdan jadidlarning siyosiy dunyoqarashi Turkiston tarixida yangi bosqichni boshlab berdi.

Bugungi kunda jadidlar merosini ilmiy jihatdan o'rganish, ularning siyosiy faoliyati va g'oyalarini chuqur tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ularning qarashlari milliy davlatchilik, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish jarayonlari bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu maqolada Turkiston jadidlarining siyosiy qarashlari tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilinadi hamda ularning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi.

XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkiston hududi murakkab siyosiy va ijtimoiy jarayonlar ta'sirida rivojlandi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik siyosati natijasida mahalliy aholining iqtisodiy mustaqilligi cheklanib, siyosiy huquqlari keskin qisqartirildi. Yer-suv masalalaridagi adolatsizlik, soliqlarning og'irligi, mahalliy boshqaruvning markazga bo'ysundirilishi jamiyatda norozilik kayfiyatini kuchaytirdi. Shu bilan birga, xalqning aksariyati savodsiz bo'lib, zamonaviy bilimlardan chetda qolgan edi. Ana shunday murakkab sharoitda jamiyatni isloh qilishga bo'lgan ehtiyoj tobora



kuchaydi. Turkiston ziyolilari xalqni taraqqiyot yo‘liga olib chiqish uchun avvalo ma’rifat zarurligini anglab yetdilar. Ularning fikricha, savodsizlik va jaholat mustamlakachilikning eng asosiy tayanchi bo‘lib, undan qutulmasdan milliy ozodlikka erishish mumkin emas edi. Shu sababli jadidchilik harakati dastlab ta’lim sohasidagi islohot sifatida shakllandi. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lishiga tashqi va ichki omillar ham katta ta’sir ko‘rsatdi. XIX asr oxirlarida Usmonli davlati, Misr va Rossiyadagi musulmon ziyolilari orasida keng tarqalgan islohotchilik g‘oyalari Turkistonga ham kirib keldi. Ismoil G‘aspiralining “Til birligi, fikr birligi, ish birligi” shiori jadidlar uchun muhim dasturiy g‘oya bo‘lib xizmat qildi. Uning “Tarjimon” gazetasi orqali ilgari surilgan qarashlar Turkiston ziyolilarining dunyoqarashini kengaytirdi. Shu davrda Turkistonda yangi usuldagi maktablar tashkil etila boshladi. Bu maktablarda an’anaviy diniy ta’lim bilan bir qatorda matematika, geografiya, tarix, tabiiyot fanlari ham o‘qitildi. Munavvarqori Abdurashidxonov, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy kabi jadidlar ta’lim tizimini isloh qilish orqali jamiyatni yangilash mumkinligiga ishonidilar. Ularning fikricha, bilimli va tafakkurli avlodgina mustamlakachilik zulmiga qarshi tura olardi. Jadidchilik harakatining shakllanishida shahar muhitining rivojlanishi ham muhim rol o‘ynadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, Farg‘ona kabi markazlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik va matbuot rivojlanishi natijasida yangi ijtimoiy qatlam, ya’ni zamonaviy fikrlovchi ziyolilar shakllandi. Aynan shu qatlam jadidchilik g‘oyalarining asosiy targ‘ibotchisiga aylandi. Dastlab jadidlar faoliyati asosan ma’rifiy xarakterga ega bo‘lgan bo‘lsa, vaqt o‘tishi bilan u siyosiy mazmun kasb eta boshladi. Ta’lim va tarbiya orqali jamiyatni o‘zgartirishning cheklanganligini anglagan jadidlar siyosiy islohotlar zarurligini tushunib yetdilar. Ular mustamlakachilik siyosatining mohiyatini ochib berishga, xalqni o‘z huquqlarini anglashga chaqirishga harakat qildilar. Jadidchilik harakati nafaqat maktablar va matbuot orqali, balki teatr, adabiyot va publitsistika orqali ham rivojlandi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Padarkush” asari, Abdulla Avloniyning pedagogik va adabiy merosi, Fitratning publitsistik chiqishlari xalq ongida ijtimoiy va siyosiy masalalarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi. Bu asarlar orqali jadidlar jamiyatdagi illatlar, jaholat va adolatsizlikka qarshi kurash g‘oyasini targ‘ib qildilar. Shunday qilib, jadidchilik harakatining tarixiy asoslari mustamlakachilik sharoiti, savodsizlik muammosi, tashqi islohotchilik g‘oyalari va mahalliy ziyolilarning milliy mas’uliyati bilan uzviy bog‘liqdir. Jadidlar jamiyatni yangilashni ta’limdan boshlagan bo‘lsalar-da, asta-sekin siyosiy uyg‘onish sari yo‘l oldilar. Bu jarayon keyinchalik Turkistonda milliy ozodlik harakatining shakllanishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Jadidlarning siyosiy dunyoqarashida milliy muxtoriyat va mustaqillik g‘oyasi markaziy o‘rin egallaydi. Dastlab ular Turkistonning Rossiya imperiyasi tarkibida muxtor hudud sifatida rivojlanishi mumkin, deb hisoblaganlar. Chunki o‘sha davr sharoitida to‘liq mustaqillikka erishish siyosiy va harbiy jihatdan nihoyatda murakkab edi. Shu sababli jadidlar avvalo muxtoriyat orqali milliy manfaatlarni himoya qilish yo‘lini tanladilar. Jadidlarning fikricha, muxtoriyat Turkiston xalqiga o‘z taqdirini mustaqil belgilash, mahalliy boshqaruvni xalq manfaatlariga moslashtirish va milliy madaniyatni rivojlantirish imkonini berardi. Ular markazdan tayinlangan amaldorlar o‘rniga mahalliy, bilimli va mas’uliyatli kadrlar boshqaruvda faol ishtirok etishi lozimligini ta’kidladilar. Bu qarashlar jadidlarning xalqparvar va demokratik ruhda fikrlaganini ko‘rsatadi. 1917-yil Fevral inqilobidan so‘ng yuzaga kelgan siyosiy erkinlik muhiti jadidlarning bu g‘oyalarini amalda ro‘yobga chiqarishiga imkon yaratdi. Aynan shu davrda ular siyosiy maydonga faol kirib kelib, turli tashkilotlar va partiyalar tuzdilar. 1917-yil noyabr oyida Qo‘qonda Turkiston Muxtoriyatining e’lon qilinishi jadidlarning milliy muxtoriyat haqidagi qarashlarining amaliy natijasi bo‘ldi. Turkiston Muxtoriyati rahbarlari demokratik boshqaruv tizimini yaratishga intildilar. Ular parlament tashkil etish, hukumatni xalq vakillari orqali shakllantirish, milliy armiya tuzish va moliyaviy mustaqillikka erishishni maqsad qilib qo‘ydilar. Muxtoriyat dasturida barcha millat vakillarining teng huquqliligi, so‘z va matbuot erkinligi, ta’lim va madaniyatni rivojlantirish kabi



masalalar alohida o‘rin tutgan.

Jadidlar muxtoriyatni mustaqillikka eltuvchi muhim bosqich deb bilganlar. Ularning fikricha, xalq siyosiy tajriba orttirib, o‘zini boshqarish ko‘nikmalarini shakllantirgandan keyingina to‘liq mustaqillikka erishish mumkin edi. Shu sababli ular keskin inqilobiy yo‘ldan ko‘ra, bosqichma-bosqich taraqqiyot yo‘lini afzal ko‘rdilar. Biroq Turkiston Muxtoriyati qisqa vaqt ichida bolsheviklar tomonidan tugatildi. 1918-yil fevral oyida Qo‘qon shahrining harbiy kuch bilan egallanishi jadidlarning siyosiy rejalariga katta zarba bo‘ldi. Ko‘plab muxtoriyat rahbarlari quvg‘inga uchradi yoki faoliyatini yashirin davom ettirishga majbur bo‘ldi. Bu voqea jadidlarning tinch yo‘l bilan mustaqillikka erishish rejalarining murakkabligini ko‘rsatdi. Shunga qaramay, muxtoriyatning mag‘lubiyati jadidlarning mustaqillik g‘oyalari bilan voz kechishga olib kelmadi. Aksincha, bu voqea ularning siyosiy qarashlarini yanada mustahkamladi. Keyingi yillarda jadidlar turli shakllarda milliy manfaatlarni himoya qilishda davom etdilar. Ularning asarlari, maqolalari va faoliyati orqali mustaqillik g‘oyasi xalq ongida yashab qoldi. Jadidlarning milliy muxtoriyat va mustaqillik haqidagi qarashlari bugungi mustaqil O‘zbekiston davlatchiligining tarixiy ildizlarini tashkil etadi. Ular xalqni erkinlik, o‘zini o‘zi boshqarish va milliy birlik sari yetaklagan ilg‘or ziyolilar sifatida tarixda muhim o‘rin egallaydi.

Jadidlarning siyosiy qarashlarida huquqiy davlat va konstitutsion boshqaruv g‘oyasi alohida o‘rin egallaydi. Ular jamiyat taraqqiyotining asosi sifatida qonun ustuvorligi, adolatli boshqaruv va fuqarolarning teng huquqliligini muhim deb bildilar. Jadidlar fikricha, davlatning kuchi zo‘ravonlikda emas, balki qonun va adolatga tayanishida namoyon bo‘lishi kerak edi. O‘sha davr Turkistonida boshqaruv tizimi asosan mustamlakachilik maqsadlariga xizmat qilgan bo‘lib, mahalliy aholining manfaatlari yetarli darajada hisobga olinmas edi. Sud tizimi, soliqlar va ma‘muriy boshqaruvda adolatsizliklar keng tarqalgan edi. Jadidlar ana shu holatlarni keskin tanqid qilib, huquqiy tartibotga asoslangan davlat barpo etish zarurligini ilgari surdilar. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Fitrat, Abdulla Avloniy kabi jadid ziyolilari o‘z asarlarida va publitsistik chiqishlarida konstitutsiya, parlament, saylov tizimi kabi tushunchalarni keng targ‘ib qildilar. Ular Yevropa va musulmon mamlakatlaridagi boshqaruv tajribalarini o‘rganib, Turkiston sharoitiga mos demokratik tizim yaratish g‘oyasini ilgari surdilar. Jadidlarning fikricha, konstitutsiya davlat va xalq o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat bo‘lishi kerak edi. Jadidlar hokimiyatning cheklanmagan bo‘lishini jamiyat uchun xavfli deb hisobladilar. Shu sababli ular hokimiyat tarmoqlarining o‘zaro muvozanatiga asoslangan boshqaruv tizimini qo‘llab-quvvatladilar. Ularning qarashlarida qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining mustaqilligi muhim o‘rin tutgan. Bu esa zamonaviy huquqiy davlat tamoyillariga mos keladi. Sud tizimi masalasi jadidlar uchun alohida ahamiyatga ega edi. Ular sudlarning mustaqil bo‘lishi, poraxo‘rlilik va tanish-bilishchilikka barham berilishi zarurligini ta’kidladilar. Fitrat o‘z asarlarida adolatli sud jamiyat barqarorligining muhim kafolati ekanini qayd etgan. Jadidlar uchun sud faqat jazolash organi emas, balki fuqarolarning huquqlarini himoya qiluvchi muhim institut edi. Jadidlarning huquqiy davlat haqidagi qarashlari inson huquqlariga hurmat bilan ham bog‘liq edi. Ular so‘z erkinligi, vijdon erkinligi, ta’lim olish huquqi va shaxs daxlsizligini muhim qadriyatlar sifatida e’tirof etdilar. Ayniqsa, matbuot erkinligi jamiyatda ochiqlik va adolatni ta’minlashning muhim vositasi sifatida baholandi. Jadidlar konstitutsion boshqaruvni jamiyatda tartib va barqarorlikni ta’minlaydigan tizim deb bildilar. Ularning fikricha, qonunlar xalq manfaatlari mos bo‘lishi, fuqarolar esa ularning bajarilishida faol ishtirok etishi zarur edi. Bu jarayonda saylov tizimi muhim ahamiyat kasb etib, xalq hokimiyat manbai sifatida qaraldi. Shuni ta’kidlash joizki, jadidlarning huquqiy davlat va konstitutsion boshqaruv haqidagi qarashlari faqat nazariy xarakterga ega bo‘lmagan. Turkiston Muxtoriyati faoliyati davomida ular bu g‘oyalarni amalda ro‘yobga chiqarishga harakat qildilar. Muxtoriyat dasturida demokratik boshqaruv, teng huquqlilik va qonun



ustuvorligi masalalari alohida belgilangan edi. Soddaroq qilib aytganda, jadidlarning huquqiy davlat va konstitutsion boshqaruv haqidagi qarashlari Turkistonda zamonaviy siyosiy tafakkurning shakllanishida muhim rol o'ynadi. Ularning bu boradagi g'oyalari bugungi demokratik jamiyat qurish jarayonida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda shakllangan jadidchilik harakati milliy uyg'onish jarayonining muhim bosqichi bo'lib, jamiyatning siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy taraqqiyotida alohida o'rin egallaydi. Jadidlar mustamlakachilik sharoitida xalqni jaholatdan chiqarish, siyosiy ongini oshirish va milliy manfaatlarni himoya qilishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi sifatida belgiladilar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, jadidchilik harakati dastlab ma'rifiy islohot sifatida shakllangan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u siyosiy mazmun kasb etdi. Ta'lim tizimini yangilash, matbuotni rivojlantirish va madaniy-ma'rifiy faoliyat orqali jadidlar jamiyatda yangicha fikrlash muhitini yaratishga erishdilar. Bu jarayon milliy o'zlikni anglash va siyosiy faollikning shakllanishi uchun mustahkam zamin bo'ldi. Jadidlarning milliy muxtoriyat va mustaqillik haqidagi qarashlari ularning siyosiy yetukligini namoyon etdi. Turkiston Muxtoriyatining tashkil etilishi jadidlar g'oyalarining amaliy ifodasi bo'lib, xalqni o'zini o'zi boshqarishga tayyorlash yo'lidagi muhim tajriba vazifasini bajardi. Garchi bu muxtoriyat uzoq davom etmagan bo'lsa-da, u milliy davlatchilik tarixida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, jadidlarning huquqiy davlat va konstitutsion boshqaruv haqidagi qarashlari zamonaviy demokratik tamoyillarga mos keladi. Qonun ustuvorligi, adolatli sud tizimi, inson huquqlariga hurmat va xalq ishtirokiga asoslangan boshqaruv haqidagi g'oyalar jadidlarning ilg'or siyosiy tafakkurini aks ettiradi. Ular davlat va jamiyat munosabatlarini qonun asosida tartibga solish zarurligini chuqur anglagan ziyolilar edi. Sovet hokimiyati davrida jadidlarning faoliyati sun'iy ravishda to'xtatilgan bo'lsa-da, ularning siyosiy va ma'naviy merosi xalq xotirasida saqlanib qoldi. Bugungi mustaqil O'zbekiston taraqqiyotida jadidlar ilgari surgan erkinlik, adolat, ma'rifat va milliy birlik g'oyalari muhim tarixiy manba bo'lib xizmat qilmoqda. Turkiston jadidlarining siyosiy qarashlari milliy davlatchilik va fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ularning faoliyati va merosi bugungi avlod uchun vatanparvarlik, mas'uliyat va ongli fuqarolik namunasidir. Jadidlar qoldirgan boy siyosiy-ma'naviy merosni chuqur o'rganish va amaliy hayotda tatbiq etish hozirgi davr uchun ham dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qosimov B. Jadidchilik harakati va milliy uyg'onish. – Toshkent: Ma'naviyat, 2004.
2. Ziyo A. O'zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2001.
3. Karimov S. Turkiston jadidlari va matbuot. – Toshkent: Fan, 2007.
4. Behbudiy M. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1999.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: O'qituvchi, 2003.
6. Fitrat. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000.
7. Yusupov Sh. Jadidlar faoliyati va qatag'onlar tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2010.
8. Xolboyev H. XX asr boshlarida Turkistonda siyosiy jarayonlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012.
9. Saidov A. Huquqiy davlat asoslari. – Toshkent: Adolat, 2005.
10. Rajabov Q. Turkiston Muxtoriyati tarixi. – Toshkent: Sharq, 2008.

